

**TDIU SF o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribosari Farxod Axrorovning
2024 yil 22-27 yanvar kunlari Germaniyaning Weihenstephan-Triesdorf
amaliy fanlar universitetiga qilgan tashrifi bo'yicha**

XIZMAT SAFARI HISOBOTI

Men, TDIU SF o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribosari Farxod Axrorov 2024 yil 22-27 yanvar kunlari Germaniya Federativ Respublikasining Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universitetida xizmat safarida bo'ldim. Safar davomida Bavariya Federal yeri hududida joylashgan ishlab chiqarish korxonalariga tashriflar amalga oshirildi. Tashrif 2024-yil 22-yanvardan 27-yanvargacha bo'lib o'tdi.

Tashrifdan ko'zlangan asosiy maqsadlar Weihenstephan-Triyesdorf amaliy fanlar universitetining asosiy vakillari bilan uchrashib, hamkor universitetlar uchun manfaatli kelishuvlarni mustahkamlash, ikki hamkor universitet o'rtasidagi qo'shma ta'lif dasturida hamkorlikning potensial yo'nalishlarini o'rganish, talabalar va professor-o'qituvchilar uchun almashinuv dasturlarini amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilish va qo'shma ta'lif dasturida hamkorlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy talablar asosida hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish hamda ta'lif tizimlari va akademik amaliyotlar bo'yicha o'zaro kelishuvlarga erishish masalalaridan iborat edi.

Tashrifning ilk kunida delegatsiyamiz Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universitetining Weihenstephan kampusida universitet Prezidenti (rektori) professor Erik Veulliet va vitse-prezident, professor Karsten Lorz bilan samarali uchrashuv o'tkazib, universitetning o'quv tuzilmasi va moddiy-texnika bazasi bilan tanishishdi. Hamkorlar tomonidan universitetlar va ta'lif tizimi bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi.

Tashrifning keyingi kunlarida delegatsiyamiz universitetning Triesdorf kampusiga tashrif buyurishdi. Hamkor universtitetning qo'shma ta'lif dasturlari uchun mas'ul bo'lgan barcha professor-o'qituvchilari, jumladan Ralf Schlauderer, Paul Michels, Ulrike Machold, Velgelm Pflanz, Aram Arestakesyan, Irina Smetanskaya, Miriam Ferstl-Trotzky, Aijan Nasyrbekovalar delegatsiyaning Germaniyadagi tashrifi bilan tabriklab, hamkor universitet mutasaddilari tomonidan Triesdorf kampusidagi mavjud fakultetlar va kafedralar haqida taqdimotlar qilindi. Yangi loyihalar va hamkorlikning keyingi bosqichlarini muvaffaqiyatli davom ettirish masalalari muhokama qilindi, hamkorlarning umumiyl manfaatlari va potensial hamkorlik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha professor-o'qituvchilar bilan davra suhbatlari o'tkazildi. TDIUSF va HSWT dagi o'quv va qo'shma ta'lif dasturlarini moslashtirish masalalari keng muhokama qilindi. O'zbekiston va

Germaniya o‘rtasidagi bu muhim hamkorlik, ilm-fan va ta’lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, ikkala mamlakatning kelajagi uchun mustahkam poydevor qo‘yishi e’tirof etildi.

Shuningdek, delegatsiyamiz TDIU Samarqand filiali va Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universitetining qo’shma dastur talabalari bilan ham uchrashib, ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatlari, o‘qish va yashash sharoitlari, kelajakdagi qiziqish va karyeralari haqida atroflicha suhbatlashishdi. Talabalar o’zlarini qiziqtirgan barcha savollariga vazirlik va universitet mas’ullaridan javoblar olishdi. Uchrashuv samimiy ruhda o’tdi hamda mutasaddilar talabalarga muhim va foydali maslahatlarini berishdi.

Delegatsiyamiz Germaniyaga xizmat safari doirasida hamkorlar bilan qo’shma ta’lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni kengaytirish, yangi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalar amaliyotlarini tashkil etish, talabalar bilimini baholash hamda ta’lim sifatini ta’minlash masalalari muhokama qilishdi. Kelgusi o‘quv yilidan boshlab qo’shma dastur talabalariga ajratiladigan stipendiyalarini oshirishga kelishildi.

“Food startup incubator”

O’quv tajriba xo’jaligi

Biotexnologiya, bioximiya, mahsulotlarni qayta ishlash o’quv laboratoriyalaru

ARM

Shu bilan birga universitetning o‘zbekistonlik talabalari o‘qish va yashash sharoitlari o‘rganilib, talabalar amaliyot o‘tayotgan korxonalarga tashrif buyurildi. Talabalar bilan suhbat jarayonida ularning keyingi o‘qish va mehnat faoliyatları bo‘yicha tavsiyalar berildi.

O’zbekistonlik talabalarni ta’til davrida ishlash imkoniyatlari

Xulosa qilib aytganda, Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universitetiga tashrif samarali va amaliy ahamiyatga ega bo’ldi hamda hamkorlikdagi qo’shma ta’lim dasturlarini yanada rivojlantirishning istiqbolli natijalariga erishish yo’nalishlari belgilab olindi.

O’quv ishlari bo‘yicha direktor o’rinbosari

F.B.Axrоров

29.01.2024